

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

RO'YXATGA OLINDI
№ vm – 343 - 5A340606 – 2.08
« 1 » Iyul 2003 y

«TASDIQLANDI»
O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi

« 8 » Iyul 2003 y

**MARKAZLASHGAN INVESTITSIYALAR VA
ULARNI MOLIYALASHTIRISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 -«Biznes va boshqaruv»
ta'lim sohasidagi 5A3406015 — «Davlat iivestorlari»
magistratura mutaxassisligi uchun**

Tuzuvchilar: dots. Jo'raev A. S.
k. o'q. Sultanov M. A.

Taqrizchilar: dots. Boboqulov T. I.
k. o'q. Nosirov E. I.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish avvalombor moliyaviy resurslardan oqilona foydalanib, ustuvor sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Ishlab chiqilayotgan investitsiya loyihalarining hayotiyiligi, davlatning ustuvor yo'nalishlari, tarmoqlarni rivojlantirish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda markazlashgan moliyaviy mablag'larni shakllantirish va ulardan samarali foydalanib, milliy daromadni oshishiga erishish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad markazlashgan investitsiyalar mohiyati, mazmuni va ahamiyati, ularning yalpi ichki mahsulotni ko'paytirishdagi o'rni, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha investitsiyaga bo'lgan talabni aniqlash, shu bilan birga markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, jumladan, davlat byudjeti va boshqa markazlashgan fondlar, garov ta'minoti, davlat kafolati ostida jalb qilinadigan mablaglar, subsidiya, subventsiya, dotatsiya byudjet va kredit tushunchalarini, davlat ahamiyatiga molik xo'jalik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash vazifalari hisoblanadi.

Shuningdek, fanning asosiy vazifasi magistrantlarga markazlashgan investitsiya loyihalarini tanlab olish, ularning ekspertizasi, investitsiya faoliyatini muvofiqlashtirishda davlat tashkilotlarining o'rni, davlat byudjeti kamomadi va uni qoplash manbalari, jumladan davlatning qarzdorlik majburiyatlarini muomalaga chikarish va emissiya jarayonlari bilan bog'liq masalalar yuzasidan bilim egallashlariga imkoniyat yaratishdan iborat.

Углубление экономических реформ в республике, прежде всего, требует развития приоритетных отраслей, эффективное использование финансовых ресурсов.

Увеличение национального дохода зависит от жизнеспособности разрабатываемых инвестиционных проектов. Особую актуальность приобретает формирование централизованных финансовых ресурсов для приоритетных направлений государства в условиях рыночных отношений.

Основной целью изучения данной дисциплины является определение сущности и значения централизованных инвестиций, их роль в увеличении валового внутреннего продукта, определение потребности инвестиции по отраслям экономики, источников финансирования централизованных инвестиций, т.е. государственный бюджет и другие централизованные фонды, обеспечение средств под гарантии правительства, понятия субвенций, субсидий, дотаций,

государственный кредит и финансовые поддержки хозяйствующих субъектов государственного значения.

А также основной задачей данной дисциплины является создание необходимых условий для магистрантов в осваивании знаний относительно вопросов, связанных с отбором централизованных инвестиционных проектов, их экспертиза, роль государственных органов в урегулировании инвестиционных проектов, дефицит государственного бюджета и источники их покрытия, в том числе, выпуск государственных долговых обязательств и другие вопросы, связанные с эмиссией.

Deepening of economic reforms in the republic demands, first of all of perspective branches and effective utilization of financial resources.

The increase of the national income depends viability developed investment projects. Formations of the centralized financial resources for priority directions of the state in conditions of market attitudes is actual.

The basic purpose of the study is essence and value of the centralized investments, a role of investments in increase of a total internal product, definition of requirement of the investment on branches of economy, sources financing of the centralized investments i.e. the state budget and other centralized funds, maintenance of the funds under guarantees of the government, concept, grants, the state loan and financial supports of managing subjects of the state importance.

And also the primary goal of the given study is to create importance to master knowledge concerning questions of the centralized investment funds connected by selections, examination of the given projects, a role of the state bodies in regulation of investment projects, deficiency of the state budget and sources of their coverage, including release of the state liabilities and other problems connected with issue.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma)

Dastur O'zbekistan Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis baeni).

1. SO'Z BOSHI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali jamiyat a'zolari farovonligini oshirishga yo'naltirilgan. Mazkur yo'nalishlarni yanada faollashtirishda mukammal tanlab olingan investitsiya loyihalariga zamon talabiga moe texnologiyani jalb etish, shuningdek, ularni zarur moliyaviy resurslar, xususan markazlashgan investitsiyalar bilan ta'minlashning ahamiyati yanada oshib boradi.

Uquv fanining maqsad va vazifalari, boshqa failar bilan o'zaro bog'lanishi

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fanini o'qitishning asosiy maqsadi respublika davlat byudjetining daromad manbalarini shakllantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat ahamiyatiga molik sohalarni moliyaviy qo'llab-quvatlash bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish uchun faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga hayotiy loyihalar tanlab olish, ularni yangi texnologiyalar bilan ta'minlab, samaradorligini oshirish, markazlashgan investitsiyalarni amalga oshirish uchun manbalarni yaratish, masalalarni atroflicha o'rganish mazkur fanning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish, taxlil qilish jarayoni bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning vazifalarini o'rganish ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu fan «Davlat byudjeta», «Soliq va soliqqa tortish», «Investitsion tahlil», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish» mexanizmi», «Loyiha-smeta ishi», «Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish», va «Davlat investitsiya siyosati» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, magistrantlardan ushbu fanlarni ham chuqur o'zlashtirish talab etiladi.

Uquv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga talablar

Ushbu fanni o'rganish natijasida magistrantlar tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim.

Magistrantlar umumnazariy fanlardan olgan bilimlari bilan bir qatorda - investitsiya va xorijiy investitsiya sohasiga oid qonunchilik, shuningdek, investitsiya siyosatidagi o'zgarishlardan ham xabardor bo'lishlari lozim.

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» o'quv fani bo'yicha magistrantlar kuyidagi masalalarni bilishlari lozim:

- markazlashgan investitsiyalarning mohiyati, mazmuni va ahamiyati;

- davlat ahamiyatiga molik sohalar va ularni rivojlantirish xususiyatlari;
- qabul qilinayotgan investitsiya dasturlari va ularni amalga oshirish jarayoni;
- davlat kafolati ostida jalb qilinadigan investitsiyalar va ularning tarmoklar bo'yicha taqsimlanishi;
- riskli moliyalashtirish va uning investitsiyalash jarayonidagi ahamiyati;
- markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari;
- xususiylashtirish jarayonida markazlashgan investitsiyalar;
- garov ta'minoti;
- markazlashgan investitsiyalar va davlat byudjeta;
- investitsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar;
- investitsiya faoliyatiga taalluqli huquqiy xujjatlar;

Magistrantlar mazkur o'quv fani bo'yicha yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar bo'yicha tasavvurga ega bo'lishlari, bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlari hamda yangiliklarni o'zlashtira bilishlari kerak.

Shuningdek ular kompyuterlardan va boshqa zamonaviy axborot vosmtalaridan foydalanish asoslarini o'rgatuvchi fanlarni ham o'zlashtirishlari lozim.

Ta'lim jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni solishtirish ueullarini, magistrantlarning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, bilim va ilmga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish bilan birga ularga mustaqil bilim olish uchun sharoit yaratib berish zarur.

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fanidan olgan bilimlar magistrantlarni oliy o'quv yurtini tamomlagandan so'ng, kundalik faoliyatida uchraydigan dolzarb amaliy masalalarni echishda hamda iqtisodiyotga doir zamonaviy adabiyotlarni o'rganib malakalarini oshirishlarida ham qo'l keladi.

Amaliy, seminar va laboratoriya mashgulotlari bo'yicha bajariladigan ishlar miqdoriga minimal talablar

Ishchi o'quv dasturida keltirilgan amaliy (seminar) mashg'ulotlar mavzulari yuzasidan magistrantlar tegishli mavzular bo'yicha konspektlar oladi, referatlar va mustaqil ishlar tayyorlaydi hamda amaliyot o'qituvchisi nazoratida ular yuzasidan og'zaki suhbatdan o'tadilar. Ushbu talablar amaliy mashg'ulotlar mavzularida kursiv bilan ko'rsatilgan savollar bo'yicha magistrantlarning dare jarayonini to'liq o'zlashtirishlarini belgilaydi.

Mashg'ulotlar bo'yicha tavsiyalar

O'quv rejasi bo'yicha fanga jami 120, shu jumladan 40 - m a'ruza, 40 - amalliy, 40 - mustakil ta'lim soatlari ajratilgan.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha magistrantlarning mustaqil o'rganishi uchun aloqida mavzular bo'yicha uy vazifalari beriladi. Magistrantlarning olgan bilimlarini aniqlashning og'zaki yoki yozma usullari qo'llaniladi.

Talabalar bilimini baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

Ushbu fan bo'yicha talabalar bilimini baholash o'quv reyting tizimi bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy baholashda yig'ilgan ballar asosida belgilanadi.

Fanni o'qitishda har bir semestrda ikki marotaba joriy, ikki marotaba oraliq va bir marotaba yakuniy baholash amalga oshiriladi. Agar fan bir necha semestr davomida o'qitilishi ko'zda tutilsa, oldingi semestrlar nihoyasida yakuniy baholash og'zaki yoki test usulida, oxirgi semestrda esa yakuniy baholash faqat yozma ish usulida amalga oshiriladi.

Kompyuter, informatsiy va boshqa zamovaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

Quyidagilar «Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fanini o'qitishda foydalaniladigan kompyuter, axborot va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarining tarkibiy qismlari hisoblanadi.

- o'quv maqsadlari va vazifalar katalogini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadlarini nazorat (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan, slayd, kompyuter dasturlaridan foydalanish;
- rejalashtirilgan maqsadlarning bajarilishini baholash.

Magistrantlarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- magistrantlarni oddindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- magistrantlarga o'z bilimlarini o'zi baholashi uchun sharoit yaratib berish;
- magistrantlarning bilimni tayanch iboralar asosida baholashni joriy qilish;
- magistrantlarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish va h.k.

Bu fanni o'qitishda investitsiya sohasiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, investitsiya dasturi, nizomlar va investitsiya loyihalarini baholashning YuNIDO uslubiyoti va kompyuter dasturlaridan, yangi kompyuter texnologiyalardan, tarqatma materiallardan, testlar to'plamidan ham foydalanish mumkin.

Ish dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

Mazkur fan «Investitsiya faoliyatini moliyalashtirish» «Davlat investitsiyalari» mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim olaetgan magistrantlarga uchinchi semestrda o'qitilishi mo'ljallangan. Bu fanni o'qitishda investitsiya faoliyatiga tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, Moliya vazirligining amaliy materiallaridan, banklarda loyihalarni tahlil etish bo'yicha tavsiyanomalardan, nizomlardan, shuningdek kompyuter dasturlaridan, saytlardan foydalanish lozim.

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Magistrantlarning o'quv jarayonida olgan bilimlarini o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan reyting tizimi asosida baholash tavsiya etiladi.

2. FAN DASTURI

"Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish" fani bo'yicha ma'ruza mavzulari:

Fanning predmeti va mazmuni. Markazlashgan investitsiyalarni mohiyati va mazmuni

Fanning predmeti va vazifalari. Fanning tarkibiy tuzilishi, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Markazlashgan investitsiyalar haqida tushuncha. Iqtisodiyotda markazlashgan investitsiyalarning ob'ektiv zarurligi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda markazlashgan investitsiyalarning tutgan o'rni, markazlashgan investitsiyalar va yalpi ichki maxsulot.

Xususiylashtirishcha jarayonida investitsiyalarning

shakllanishi

Respublikamizda xususiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.
Xususiylashtirish va markazlashgan investitsiyalar.

Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar taqsimoti. Xususiylashtirish jarayonlariga milliy va xorijiy investorlarni jalb qilish.

Investitsiya dasturi

Investitsiya dasturining shakllanishi. Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faoliyatining shakllanishi. Markazlashgan investitsiyalarni diversifikatsiyalash masalasi.

Markazlashgan investitsiyalarni jalb qilish

Davlat kafolati ostida jalb qilinadigan investitsiyalar. Garov ta'minoti. Investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha joylashtirish xususiyatlari. Davlat kafolati asosida jalb kilingan xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda samaradorlik masalalari.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Davlat byudjeti. Davlat mulk qo'mitasi. Markaziy bank. Boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish. O'zbekistonda markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari.

Davlat ahamiyatiga molik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash
Iqtisodiyotning strategik tarmokdarini rivojlantirishda markazlashgan investitsiyalarning o'rni. Soliq imtiyozlari. Subsidiya. Subvensiya. Dotatsiya. Byudjet kreditlari.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar

Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi investitsiya bo'limi. Tashki iqtisodiy aloqalar agentligi. Markaziy bank. Moliya vazirligi. Iqtisodiyot vazirligi. Adliya vazirligi. Davlat mulk tso'mitasi. Xorijiy investitsiyalar agentligi.

Riskli moliyalashtirish

Risk va ularning turlari. Hamkorlikda moliyalashtirishdagi risklar. Loyiha ishtiroqchilari o'rtasida riskning taqsimlanishi. Riskni sugurtalash.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishda chet el tajribalari

Rivojlangan mamlakatlarda markazlashgan investitsiyalar. Moliyalashtirish xususiyatlari. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishda Yaponiya, Buyuk Britaniya va Frantsiya tajribasi.

3. AMALIY (SEMINAR) MASHG'ULOTLAR MAVZULARINING TAXMINIY RO'YXATI

Markazlashgan investitsiyalarning mohiyati va mazmuni

Markazlashgan investitsiyalar haqida tushuncha. Iqtisodiyotda markazlashgan investitsiyalarning ob'ektiv zarurligi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda markazlashgan investitsiyalarning tutgan o'rni, markazlashgan investitsiyalar va yalpi ichki mahsulot.

Xususiylashtirish jarayonida investitsiyalarning shakllanishi

Respublikamizda xususiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari,
Xususiylashtirish va markazlashgan investitsiyalar.

Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar taqsimoti. Xususiylashtirish jarayonlariga milliy va xorijiy investorlarni jalb qilish.

Investitsiya dasturi

Investitsiya dasturining shakllanishi. Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya faoliyatining shakllanishi. Markazlashgan investitsiyalarni diversifikatsiyalash masalasi

Markazlashgan investitsiyalarni jalb qilish

Davlat kafolati ostida jalb qilinadigan investitsiyalar. Garov ta'minoti. Investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha joylashtirish xususiyatlari. Davlat kafolati asosida jalb qilingan xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishda samaradorlik masalalari.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari. Davlat byudjeti. Davlat mulk qo'mitasi. Markaziy bank. Boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish. O'zbekistonda markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish va uning samaradorligini oshirish masalalari.

Davlat ahamiyatiga molik xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash Iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini rivojlantirishda markazlashgan investitsiyalarning o'рни. Soliq imtiyozlari. Subsiya. Subvensiya. Dotatsiya. Byudjet kreditlari.

Investitsiya faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar

Vazirlar Mahkamasi tarkibidagi investitsiya bo'limi faoliyati. Tashqi iqtisodiy aloqalar Agentligi. Markaziy bank. Moliya vazirligi. Iqtisodiyot vazirligi.- Adliya vazirligi. Davlat mulk qo'mitasi. Tashqi investitsiyalar agentligi.

Riskli moliyalashtirish

Risk va ularning turlari. Hamkorlikda moliyalashtirishdagi risklar. Loyiha ishtirokchilari o'rtasida riskning taqsimlanishi. Riskni sug'urtalash.

Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishda chet el tajribalari Rivojlangan mamlakatlarda markazlashgan investitsiyalar. Moliyalashtirish xususiyatlari. Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirishda Yaponiya, Buyuk Britaniya va Fransiya tajribasi.

4. GAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproektor va jadvallardan foydalanish ko'zda tutilgan. Ayrim aniq masalalarni o'rganishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish ham taveiya etiladi.

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fakini o'rganishda magistrantlar amaliy yordam tariqasida investitsiya siasatining asosiy yo'nalishlarini, investitsiya dasturlarini ishlab chiqish bosqichlarini o'rganish bo'yicha chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi.

Magistrantlarga «Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» finini o'rganishda turli axborot vositalaridan, shu jumladan internet gizimidagi quyidagi sayt va elektron pochtalardan foydalanishlari taveiya etiladi:

<http://www.bankofamerica.com/investments/>

<http://www.ene.rgytrends.pnl.gov>

<http://www.frtib.gov/>

<http://www.worldbank.org/icsid>

<http://www.ici.org/>

<http://www.aimr.org/>
<http://www.nasbic.org>
<http://www.calvertfoundation.org/>
<http://www.optionetics.com/>
<http://invest-faq.com/>
<http://www.oakinv.com/>
<http://www.hondurasinfo.hn/>
<http://farmbill.farmbill.unl.edu/>
<http://www.eagleinvsys.com/>
<http://www.Apexvc.com>
<http://www.wisebuy.co.uk/>
<http://subscribe.ru>
<http://www.bimk.kiev.ua>
<http://tininfo.bigural.ru> 20.<http://www.bashkortostan.ru>
<http://vuirute.iessl.ru>
<http://tut.by>
<http://www.zelenograd2001.narod.ru>
<http://econsultant.ru>
<http://megapolis.kharkov.ua>
<http://www.rada.kiev.ua>
<http://alyona.nns.ru>
<http://www.hse.ru>
<http://www.samara.ru>
<http://www.vestona.ru>
<http://www.officemart.ru>
<http://www.chtivo.ru>
<http://bdg.preess.net.by>

Shuningdek, respublikamizda chop etilayotgan gazeta va jurnallardan, mutaxassisligiga tegishli ma'lumotlardan, Moliya vazirligi, Markaziy bank, Xorijiy investitsiyalar bo'yicha Agentlik, Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, "O'zbekinvest" eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi va boshqa vazirlik va idoralarning amaliy materiallaridan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedia ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Magistrantlarning o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va joriy, oraliq, hamda yakuniy baholash orqali amalga oshiriladi. Joriy va oraliq baholashga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 foizi, yakuniy baholash esa 30 foiz miqdorida belgilangan

«Markazlashgan investitsiyalar va ularni moliyalashtirish» fanidan magistr to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 80 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 28, oraliq baholashga ham 28, yakuniy baholashga 24 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholashga belgilangan ballar quyidagi mezonlar asosida qo'yiladi:

- magistrantning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozishi;
- mustaqil ta'lim uchun berilgan nazorat ishlarini bajarishi;

– fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

Tayanch iboralariga asoslangan yozma ish usulini o'tkazish tartibi "Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tadbiiq etish bo'yicha namunaviy Nizom" bilan belgilanadi. Semestr davomida fanlar bo'yicha to'plangan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi.

86 - 100 foizgacha (68,8 balldan 80 ballgacha) -"a'lo";
71 - 85 foizgacha (56,8 balldan 68,7 ballgacha) ~"yaxshi";
55 - 70 foizgacha (44 balldan 56,7 ballgacha) -"qoniqarli";
55 foizdan kam (0 dan 43,9 ballgacha) -"qoniqarsiz".

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston,1995.
2. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekistan, 1999.
3. O'zbekistan Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet investitsiyalar to'g'risida»gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining «Chet investorlarning xuquqlarini ximoya qilish chora-tadbirlari va uning kafolatlari to'g'risida» gi Qonuni.
6. Ukaz Prezidenta Respubliki O'zbekistan «O merax po sovershenstvovaniyu realizatsii proektov s inostrannimi investitsiyami».
7. Ukaz Prezidenta Respubliki «O dopolnitelnix stimulax i lgotax, predostavlyaemix predpriyatiyam s inostrannimi investitsiyami».
8. Protokol zasedaniya komissii po reformirovaniyu ekonomicheskoy, finansovoy i bankovskoy sfer, razvitiyu i ukrepleniyu rinochnix printsipov
9. i mexanizmov Mejvedomstvennogo koordinatsionnogo sovetu po reformirovaniyu i investitsiyam pri Prezidenta Respubliki O'zbekistan.
10. Prezident Islom Karimovning 2002 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2003 yilda iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.Halq so'zi, 2003 yil, 18 fevral.
11. Abdullaeva Sh. 3. Pul, kredit va banklar. — T.: Moliya, 2000 Abdullaeva Sh. 3. Bank risklari va kreditlash. - T.: Moliya, 2002.
12. Angelidi M, Karimov N. Analiz investitsionnix proektov: Uchebnoe posobie - T.: TFI, 2000.
13. Abryutina M.S., Gracheva A.V. Analiz finansovo-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatii: Uchebno-prakticheskoe posobie.- M.: Delo i Servis, 2001.
14. Bankovskoe delo i finansirovanie investitsiy. Pod. red. N.Bruka (Vsemirniy Bank Rekonstruksii i Razvitiya) Institut ekonomicheskogo razvitiya Vsemirnogo Banka, 1995.
15. Bogatin Yu.V., Shvandar V.A.. Otsenka effektivnosti biznesa i investitsiy. - M.: Yuniti, 1999.
16. G'ozibekov D.G., Sobirov O.Sh. Lizingi ego razvitie v O'zbekistane. - T.: Moliya, 2001.
17. Igoshin N.V. Investitsii. - M.: YuNITI, 1999.
18. Kovalev V.V. Finansoviy analiz. Upravlenie kapitalom. Vibor investitsiy. Analiz otchetnosti. - M.: Finansi i statistika, 2000.
19. Radionova SP., Radionov N.V.. Otsenka investitsionnix resursov predpriyatii. - M.: Alfa, 2001.
20. G.M.Kostyunina, N.N.Liventsev. Mejdunarodnaya praktika regulirovaniya inostrannix investitsiy. - M.: Ankil, 2001.

21. Sergeev I.V. Veretennikova N.I. Organizatsiya i finansirovaniya investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2000.
22. Endovitskiy D.A. Kompleksniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Investitsionnoe proektirovanie: prakticheskoe rukovodstvo po ekonomicheskomu obosnovaniyu investitsionnix proektov - M., 1995.
2. Leshchenko M.I. Osnovi lizinga. Uchebnoe posobie - M.: Finansi i statistika, 2000.
3. Gusakov B.I. Ekonomicheskaya effektivnost investitsionnoy sobstvennosti. - M.: Finansi, 1998.
4. Sergeev A.A. Ekonomicheskie osnovi biznes planirovaniya. - M.: YuNITI-Dana, 1999.
5. Lojnikov A.V. Investitsionniy analiz i kontrol investitsionnoy deyatelnosti. - M.: Finansi i statistika, 2001.
6. Margolin A.M. Ekonomicheskaya otsenka investitsiy. - M.: Finansi i statistika, 2001.
7. Moskvina V.A. Kreditovanie investitsionnix proektov. - M.: Finansi i statistika, 2001.